



UDK: 821.512.133.09-1(091)

Sardor JO'RAQULOV,
Guliston davlat universiteti o'qituvchisi
E-mail: sardorjoraqulov257@gmail.com

GulDU professori, f.f.d. M.Mamatqulov taqrizi asosida

XI–XV ASRLARDA YARATILGAN QIT'ALARNING XOS XUSUSIYATLARI

Annotsiya

Mazkur maqolada XI–XV asrlar qit'anavisligida ushbu she'riy shaklning janr sifatida to'laqonli shakllanganligi va takomillashganligini qit'aning xossalari, badiiyat unsurlari tadqiqi misolida o'rganildi. Bu davrda yaratilgan qit'alarda pandona mazmun, voqea-hodisalarga munosabat yetakchilik qilishi aniqlandi. Bu davr qit'anavislari ijodida qit'alarning yuksak namunalari yaratilishi ularning erkin fikrlashlariga imkoniyat va janr badiiyatini yuksaltirish yo'lida izlanishlar sifatida e'tirof etildi.

Kalit so'zlar: qit'a janri, XI–XV asrlar qit'anavisligi, mubolag'a qo'llash, ramzlar, poetik obraz, lirik qahramon, qit'a xossalari, qit'a badiiyati, qofiya va h.k.

SPECIAL FEATURES OF THE CONTINENTS CREATED IN THE 11TH–15TH CENTURIES

Annotation

This article examines the full formation and improvement of this poetic form as a genre in the continental poetry of the 11th–15th centuries using the example of the study of the characteristics of the continent and the elements of art. It was found that the continental poems created during this period were dominated by a pandemonium of content and attitude to events. The creation of high examples of the continent in the work of the continental poets of this period was recognized as an opportunity for their free thinking and research on the path to improving the genre's art.

Keywords: continental genre, continental poetry of the 11th–15th centuries, the use of hyperbole, symbols, poetic image, lyrical hero, continental characteristics, continental art, rhyme, etc.

ОСОБЕННОСТИ КИТЬИ, СОЗДАНЫХ В XI–XV ВЕКАХ

Аннотация

В данной статье на примере изучения характеристик китьи и элементов искусства рассматривается полное формирование и совершенствование данной поэтической формы как жанра в китьичной поэзии XI–XV веков. Выявлено, что китьичные поэмы, созданные в этот период, отличались хаосом содержания и отношения к событиям. Создание высоких образцов китьичской поэзии в творчестве поэтов этого периода рассматривается как возможность для их свободного мышления и поиска пути совершенствования жанрового искусства.

Ключевые слова: китьичный жанр, китьичная поэзия XI–XV веков, использование гиперболы, символы, поэтический образ, лирический герой, китьичные характеристики, китьичные искусство, рифма и др.

Kirish. XI–XV asrlar qit'aning janr sifatida shakllanishi va takomillashuvining birinchi bosqichi sifatida ahamiyatlidir. Bu davrdagi yaratilgan qit'alarda ushbu janrning xususiyatlari, badiiyat unsurlari shakllanib, takomillashib borganligini kuzatish mumkin. Qit'alarning hayotiylik xususiyati, ularning voqea va hodisalarga nisbatan taassurot shaklidagi munosabati, biror voqelikka tezkor javob tariqasida yaratilganligi kabi bu davr qit'alaridagi umumiy jihatlardir.

Bu davr qit'alarida shoir hayotdagi voqea-hodisalardan ta'sirlanadi, fikrlaydi, mushohada qiladi, hayotiy tajribasidan kelib chiqib o'rni bilan o'z xulosalarini bayon qiladi. Pand-nasihahat mazmunidagi qit'alarda ham ijtimoiy hayotdagi biror voqelik yoki hodisotlar, ijodkorning ulardan olgan taassurotlari aralash holda namoyon bo'ladi. Pandona qit'alar ham ijodkorning shaxsiy dunyoqarashi, diniy e'tiqodi va hayotga munosabati natijasi o'laroq yuzaga kelgan.

Mazkur davr qit'alari rivojlanish jarayonida bo'lganligidan uning shakli va mazmuni ijodkorning janrga munosabati, undan qaysi maqsadda foydalanganligiga qarab ham shakllantirilgan. Shu bois aksar qit'alar har bir ijodkor qalami orqali o'ziga xos individual ko'rinishda, o'sha davr ijtimoiy hayotiga mos mazmunda va o'zgacha badiiyat orqali namoyon bo'lgan. Bunda qit'a ijodkori o'z dunyoqarashi, tanlagan mavzusidan kelib chiqib qit'aga mos shakl va badiiyat

baxsh etganlar. "Qit'a o'zining erkin janriy xususiyati bilan shoirga ham mazmun, ham badiiy shakl yo'nalishida ijod qilish imkoniyatini yaratib bergan [6]. Shu sababli ham bu davrda yaratilgan qit'a janri namunalari ijodkor samimiyati, uning hayotiy falsafasi, dunyoqarashi namoyon bo'lgan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Milliy adabiy tanqidimizda qit'a janrini o'rganish Shayx Ahmad Xudoydod Taroziyning "Funun ul-baloga" asaridan boshlanga. U qit'a janrini asosiy lirik janrlar qatoriga kiritgan. Mashhur adabiyotshunos olim Ataulloh Husayniy o'zining "Badoe' us-sanoe'" asarida masnaviy shaklidagi qofiyalanmagan qasida, garchi u uzun bo'lsa ham, qit'a deb atalishini ta'kidlagan.

Adabiyotshunos L.N. Serikova o'zining "Alisher Navoiy lirikasining kichik shakllari" ("Malye formy liriki Alishera Navoi" (qit'a, ruboiy, fard)) tadqiqotida qit'a g'azaldan kelib chiqqanligini va shunga mos ravishda uning bir qismi bo'lgandek taassurot qoldirganini ta'kidlagan, ammo Alisher Navoiyning fikrlariga ko'ra, vaqt o'tishi bilan qit'aning tuzilishi o'zgargan, ammo uning shakli saqlanib qolgan.

Adabiyotshunos Orzigul Hamroyeva o'zining "Klassik qofiya nazariyasi asoslari" qo'llanmasida kventa janrining qofiyalanish tartibiga e'tibor qaratgan. Boshqa bir adabiyotshunos D.I. Ahmedova o'zining "X asr tojik she'riyatida qit'a janrining roli" nomli dissertatsiyasida

qit'aning dastlabki yozma shakllari fors tilida so'zlashuvchi shoirlarning asarlarida uchraydi, u boshqa manbalarda aytilganidek, saroy odatlari asosida paydo bo'lmagan, balki u qit'a janridan ancha oldin saroydan tashqaridagi shoirlarning asarlarida ma'lum va mashhur bo'lganligini ta'kidlaydi. Yana bir adabiyotshunos olim Sojida Jo'rayevaning "XX asr o'zbek adabiyotida klassik lirik janrlarni o'rganish (ruboyatlar, tuyuqlar, qit'alar misolida)" nomli dissertatsiyasi bor. Adabiyotshunos olim Nodira Afoqova "XX asr o'zbek adabiyotida ruboiylar va qit'a" nomli tadqiqotida jadid shoirlari ijodida qita janridagi she'rlar soni ruboiylar va tuyuq kabi qat'iy qonunlarga ega janrlarga qaraganda ko'proq ekanligi haqida gapirib, bu janrning erkinligi alohida e'tibor qaratgan. A.Abdug'ofurov shuningdek, qitaning erkinligini ta'kidlagan. Nodira Afoqova "O'zbek jadid adabiyotida she'riy shakllarning rivojlanish tamoyillari" nomli tadqiqotida doktorlik dissertatsiyasida qit'a janrining ijodida qo'llanilishi masalasi ham ko'rib chiqilgan.

Professor Muqaddas Tojiboyevaning "Jadid shoirlari ijodida mumtoz adabiy an'analar" nomli doktorlik dissertatsiyasi ham qisman ushbu janr namunalari o'rganishga qaratilgan. Adabiyotshunos Normat Yo'ldoshevning "Cho'lpon she'riyati poetikasi" nomli doktorlik dissertatsiyasi jadid she'riyatining yetakchi ijodkori ijodi namunalari o'rganish orqali ushbu davr she'riyatidagi rasmiy va mazmuniy o'zgarishlarni qisman ko'rsatdi.

Tadqiqot metodologiyasi. O'zbek qit'alari o'z kompozitsion strukturasi ega ekanligi, janr strukturasi, uning tarkibida qo'llanilgan komponentlarning joylashuvi, asarning badiiy-estetik xususiyatlariga, g'oyasi hamda ijodkor badiiy niyatiga qay darajada xizmat qilganligi xususidagi fikrlar maqolada aks ettirilgan.

Tadqiqot jarayonida biografik, sotsiologik, strukturaviy usullar, analitik, qiyosiy-tarixiy, qiyosiy-tipologik va strukturaviy tahlil usullari qo'llanilgan.

Tahlil va natijalar. Bobokalonimiz Mahmud Koshg'ariyning "Devoni lug'otit turk" asari tarkibidagi qit'alarda pand-nasihati mazmuni yetakchilik qiladi. Lekin pandona ruh, albatta, shoirning shaxsiy hayotiy tajribalari va asoslarga tayangan holda amalga oshirilgan.

Kelsa qali qatig'liq,

Ertar teyu seringil.

O'dlak ishin bilip tur,

Ancha angar tirangil [10].

Mazmuni: Senga qattiq tashvish va alam yetsa, o'tib ketar deb sabr qil. Dunyo ishlaridan ogoh bo'lib turishga tirish. Har qanday kulfatni o'zingga olib, joningni qiynayverma. Unda inson boshiga biror tashvish yoki kulfat tushganda uni sabr-qanoat bilan yenga bilish kerakligi xususida so'z bormoqda. Bu nafaqat Koshg'ariy zamonidagi muammo, balki barcha davrlar va butun insoniyatga tegishli masala ekanligidan qit'aning mazmuni dolzarb ekanligini anglash mumkin. Qit'a qofiyalanishi a-b, d-b tarzida.

Bulmush nangig sevar-sen,

Aqrun angar sevingil.

Barmish nangig saqitma,

Azraq angar o'kungil [10].

Mazmuni: Bor molingni sevasan, unga kamroq sevin, chunki u sendan (qo'lingdan) chiqib ketishi mumkin. Qo'lingdan ketgan narsa uchun qayg'urma, unga ozroq achin. Chunki achinish senga (qo'ldan ketganni) qaytarib bermaydi. She'rdan boylik inson uchun abadiyga berilmasligi, u bir kun qo'ldan ketadigan bo'lsa, unga achinib, qattiq qayg'uga berilmaslik kerakligi, qayg'u esa qo'ldan ketganni qaytarib bermasligi haqida aytilmoqda. Bu pandni ham barcha zamonlarga tatbiq etish mumkin. Buning ham qofiyalanishi yuqoridagicha.

Mutasavvuf ijodkor Ahmad Yassaviy hikmatlarining qit'a shaklidagi ko'rinishlarida Yassaviya tariqatiga xos falsafiy qarashlar ifodasi shoirning hayotiy tajribasi bilan aralash holda ifodalanganligini ko'rish mumkin:

Ishq da'vosin manga qilma, yolg'on oshiq,

Oshiq bo'lsang bag'ring ichra ko'z qoni yo'q,

Muhabbatni shavqi birla jon bermasa,

Zoye kechar umri oni, yolg'oni yo'q [7].

Bu qit'a mazmunidan Ollohning yolg'on oshiqklarining da'volari bekorligi ularda ishq isboti bo'lgan qalbdagi jigar xunligi yo'qligi bilan lirik qahramon so'zlari orqali isbotlangan. Chin oshiqlar Ollohga bo'lgan muhabbati shavqi bilan – uning olov taftidan jigar xun bo'lishi orqali jon beradilar, bunda yashamagan so'fiyning umri zoe ketgan bo'ladi. Ko'rinadiki, Yassaviy chin va yolg'on oshiq obrazlarini ishq shavqidan bag'ri xunlik tavsifi orqali ifodalamoqda. Qit'a qofiyalanishi a-b, d-b tarzida. "Ko'z qoni" istiorasi mazmuni ochishda kalit vazifasini o'tagan.

Hofiz Xorazmiy yaratgan qit'alar soni 31 ta ekanligi ko'rsatilgan. Devoni tarkibida ham shu raqamgacha keltirilgan. Lekin negadir 14-qit'adan keyin 22-raqamli qit'a keltirilib, shu sanoq bo'yicha davom ettirilgan. O'rtada 8 ta qit'a tushib qolgan.

Hofiz Xorazmiy qit'alarida baytlar miqdori turlicha. 1 ta - 9 bayt (18 misralik), 1 ta - 7 bayt (14 misralik), 8 ta 5 bayt (10 misralik), 2 ta 4 bayt (8 misralik), 11 ta 3 bayt (6 misralik) hajmda shakllantirilgan. Bunday miqdorlanish tadqiqotchi M.Xudoyorovning "Hofiz Xorazmiy she'riyatida yaratilgan qit'alar asosan kichik hajmli, ixcham qit'alar bo'lib, bu she'rlarning aksariyati 6 - 8 baytdan tashkil topgan" [12] degan ma'lumoti bilan to'g'ri kelmaydi.

Izdar ersang ahl-i izzat, bo'lsang, ey yor, aziz,

Sidq birla ko'rg'uzako'r barchag'a mehr-u vafo.

Dam-badam bir xasta dilni zulm ila ozor agar

Aylasang, topmag'asan ko'nglingda bir zarra safo,

Ushbu so'zumga guvoh-i haq tilasang holiyo,

Oh ila oyinaning holi erur ravshan guvo.

Kim takabbur qilmasavu topsa miskinlik yo'lin,

Ahd-i ma'no qoshida uldur haqiqat podsho.

Podshoh-i asr bo'lsang ham takabbur qilmag'il,

Oqibat chun tuproq ichra tang bo'lur shohu gado [13, 290].

Mazmuni: agar el ichra izzatli bo'lishni xohlasang, barchaga mehr-u vafoni chin dildan ko'rsat. Agar biror dili xastaga dam-badam zulm o'tkazsang, ko'ngilda zarracha bo'lsa ham beg'uborlik ko'rmaysan. Ushbu so'zinning haqligiga xolis guvoh tilaydigan bo'lsang, bir nafas bilan ko'zguning tiniqlashganligini ko'rishing mumkin. Agar inson takabburlik qilmasdan miskinlik yo'lini tanlasa, ma'no ahdi qoshida haqiqat podshosi sanaladi. Sen asr podshohi bo'lsang ham takabburlik qilmagil, oqibatda tuproq ichida, ya'ni vafot etgandan so'ng shoh-u gadoning ahvoli birdek tang bo'ladi. Ya'ni, inson izzat topmoqni istasa, avvalo, o'zining qilmishlarini nazorat qila bilish, o'zi komillik sari intilishi, garchi u shoh bo'lsa ham har bir xatti-harakati insonlarga yaxshilik qilishga qaratilgan bo'lishi zarurligi xususida so'z bormoqda. Qofiyalanishi – a-b, d-b, f-b, g-b, h-b tarzida. Vazni aruz bo'lib, ramali musammani mahzuf bahrida yozilgan.

Mavlono Lutfiy qalamiga mansub bo'lgan qit'alarining o'ziga xosligi ularning mazmunida va qofiyalanish tartibida kuzatiladi. Lutfiy devonida berilgan to'qqizta qit'aning hammasi ishq-muhabbat mavzusida bo'lib, aksari oshiqning ma'shuqani tavsiflashi, unga qilgan dil rozlari, ishq borasidagi munosabatlar bayoni va boshqalardan tashkil topgan. Qofiyalanishi esa yuqoridagi faslda aytib o'tganimizdek, tajnisli qofiyalardan ko'proq foydalangan bo'lib, bu shoirning

“tuyuq-qit'a” shaklini o'zbek adabiyotida takomillashtirganini ko'rsatadi. Masalan:

Bermagil derlar vafosizga ko'ngul
Kim, aning no'shinding ortuq neshi bor.
Uzmagaymen la'lidin o'lsam umid,
Jon mening jonim, kishining neshi bor [9].

Ma'nosi: Vafosizga ko'ngil bermagil deyishadi, uning yoqimli ekanligidan tashqari azob berishi ham bor. Men esa uning labidan umidimni uzmayman. Qiynaladigan jon mening jonim bo'lsa boshqalarning nima ishi bor? Ya'ni vafosiz bo'lsa ham yordan umidini uzmagay oshiq holati bayon qilingan. Birinchi “neshi bor” – azobi bor ma'nosida bo'lsa, ikkinchi “neshi bor” birligi nima ishi bor ma'nosida qo'llanilib, tajnisli qofiyani hosil qilgan. Qofiyalanish tartibi: a-b, d-b. Vazni – ramali musaddasi maqsur.

Zoti pokingni ko'rub aytur falak:
“Husn daryosida yo'qtur bo'yla dur”.
Chun tishing vasfini durga so'zladim,
Boshini tebratti durkim: “Bo'yladur” [9]

Pokiza zotingni ko'rib falak husn daryosida bunday sof dur yo'q ekanligini aytadi. Tishing vasfini durdek javohirga so'zlasam, u ham boshini tebratib, bunaqa dur hali bo'lmaganligini aytadi. Ya'ni yorning parilar zotidan ekanligi va noyob dur-u javohir ekanligi mubolag'aviy tasvir bilan bayon qilinmoqda. Qofiyalanish tartibi: a-b, d-b. Vazni – ramali musaddasi maqsur. Birinchi “bo'yladur” atamasi “tengsiz dur” ma'nosida bo'lsa, ikkinchi “bo'yladur” so'zi bunaqa dur bo'lmagan ma'nosida qo'llanilgan va tajnisli qofiyani hosil qilib bergan.

Ko'rmadi inson munungdek nozanin,
Ko'rguzur go'yo malak yuz, yo pari.
Barcha jon devona-u shaydo qilur
Zulfi anbarbor ila yuz yopari [9].

Qit'adan anglashiladigan ma'no quyidagicha: insoniyat buningdek nozaninni ko'rmagan, go'yo malak yuz yoki pari yuzini ko'rsatayotgandek, u anbar hidlarini taratuvchi zulfi bilan yuzini yopish orqali barcha jonlarni o'ziga devonayi shaydo qiladi. Ya'ni malak yuzli go'zal yor o'ziga barchani devonalarcha shaydo qilishi xususidagi mubolag'aviy ta'riflar aks ettirilgan. Qofiyalanish tartibi: a-b, d-b. Vazni – ramali musaddasi mahzuf. Birinchi kelgan “yo pari” – malakmi yoki parimi degan ma'noda bo'lsa, ikkinchi “yopari” so'zi yuzini yopishi ma'nosida qo'llanilgan.

ADABIYOTLAR

1. Epic, M.M. S.S. (2020). Bakhrom and Gulandom” and the Folk Tales. Scientific Reports of Bukhara State University, 5(81), 34-38.
2. Fayzullayeva, A. (2010). Özbek Şairi Rauf Parfi Öztürk'ün Şiir Dünyası. Türk Dünyası İncelemeleri Dergisi, 10(2), 173-184.
3. Kholbekovna, F. O. (2021). The issue of artistic idea in poetry. European Scholar Journal, 2 (4), 233-236.
4. Mamatkulov, M., & Fayzullayeva, O. (2024). Expression Of Symbols And Allegorical Images In Lyric Cycles. Modern Science and Research, 3(1), 1-7.
5. Rakhmonkulovich, M.M. (2022). Folklore Traditions In The Epos Of Sayyadi “Tohir And Zuhr”. Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences, 14, 4-10.
6. Ахмедова Дилором Исмаевна. Х аср тожик шеърлятида китъа жанрининг тутган ўрни. Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Самарканд. 2021. – Б. 22.
7. Аҳмад Яссавий. Ҳикматлар. –Т.: Фафур Ғулум номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 1990. – Б.79.
8. Гадоий. Девон. – Т.: Фафур Ғулум номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 1973. – Б. 146.
9. Лутфий. Девон. – Тошкент: Фафур Ғулум номидаги НМИУ, 2012. – Б. 380.
10. Маҳмуд Кошғарий. Девону луғоти-т-турк. – Т.: Фафур Ғулум номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи. 2017. – Б. 404.
11. Носирулдин Бурхонуддин Рабғузий. Қисаси Рабғузий. Биринчи китоб. – Т.: Ёзувчи, 1990. – Б. 35-36.
12. Худоёрва М.Б. Алишер Навоий шеърлятида китъа жанри. Филол. фан. бўй. фалсафа докт. (PhD) ...дисс. – Т. 2022. – Б.39.
13. Ҳофиз Хоразмий. Девон. 2 томлик. 2-том. – Тошкент, 1981. – Б. 290.
14. Jo'raqulov, S. (2026, March). Ijtimoiy, siyosiy ma'naviy-axloqiy masalalarning qit'a janridagi ifodasi. In Conferences (Vol. 1, No. 01).

Umuman, Lutfiy qit'alarining to'qqiztasidan sakkiztasi tajnis qofiya asosida shakllantirilgan “tuyuq-qit'a”lardir. Qolgan bittasi esa irsoli masal asosida shakllantirilgan qit'a bo'lib, u “Rost ayturlar, ki “Davlat boshdadur” kabi jumlar bilan yakunlangan.

Gadoiy ijodidagi qit'alar ham asosan ishq-muhabbat mavzusida bo'lib, oshiq va ma'shuqa munosabatlariga, oshiqning ma'shuqa ta'rifidagi mubolag'aviy tashbehlariga bag'ishlangan. Xususan:

Zumrai ag'yordin hech g'am degul,
Gar kishiga o'z habibi yor esa.
Gar qabuliyatqa qobil ko'rsangiz,
Ush turubdur, jon sizingdur bor esa [8].

Mazmuniga ko'ra shunday: Sen ag'yorlar guruhidan hech ham g'am chekmagil, agar kishiga o'zining habibi yor bo'lsa. Agar jonimni qabul qilishga loyiq jon deb bilsangiz, jonim siznikidir, agar bor bo'lsa. Ya'ni yoningda senga vafodor yor bo'lsa uning uchun jon fido qilsang arziydi, deyilmoqda. Qofiyalanish tartibi: a-b, d-b. Vazni – ramali musaddasi mahzuf.

Agar qilsam shakkar erningdin savol,
Man Gadog'a lutfi birla kelma, der.
Chun borur bo'lsam yovuqroq qoshig'a,
Shum raqibi behaqiqat kelma der [8].

Mazmuni: agar shakardek totli labing haqida savol so'rasam, mendek Gadoga lutfing bilan kelma deydi. Agar qoshiga yaqinroq borsam, shum raqib haqiqatni aytmasdan bu yerga kelmasligimni aytadi. Ya'ni yorning mubolag'aviy maqtovi ayni haqiqatdir, demoqchi bo'ladi chin oshiq. Qofiyalanish tartibi: a-b, d-b. Vazni – ramali musaddasi mahzuf.

Xulosa va takliflar. Ushbu fasl bo'yicha xulosa qilinganda, XI–XV asrlar qit'anavisligida ushbu she'riy shaklning janr sifatida to'laonli shakllanganligi va takomillashganligini kuzatish mumkin. Bu davr birinchi bosqich sifatida ahamiyatlidir. Unda qit'aning xossalari, badiiyat unsurlari shakllanib, takomillashib borganligi kuzatiladi. Bu davrda yaratilgan qit'alarda pandona mazmun, voqea-hodisalarga munosabat yetakchilik qilishi kuzatildi. Bu davr qit'anavislari ijodida qit'alarining yuksak namunalari yaratilishi ularning erkin fikrlashlariga imkoniyat va janr badiyatini yuksaltirish sari qadam sifatida baholandi.